



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



BADIIY DISKURSDA KONSEPTLAR VA KONSEPTOSFERALAR SHAKLLANISHINING KOGNITIV-DISKURSIV MEXANIZMLARI

COGNITIVE–DISCURSIVE MECHANISMS OF THE FORMATION OF CONCEPTS AND CONCEPTUAL SPHERES IN LITERARY DISCOURSE

Azizov Solijon Uchmas o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: solijonazizov1@gmail.com

ORCID: 0000-0003-0467-7003

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/JAQL9782](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/JAQL9782)

Annotatsiya. *Mazkur tezis turli badiiy diskurslarda konseptlar va konseptosferalarning kognitiv-diskursiv tashkil topish mexanizmlarini qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda konsept lingvokognitiv birlik sifatida, konseptosfera esa diskurs doirasida shakllanadigan semantik va aksiologik makrotizim sifatida talqin qilinadi. Kognitiv va diskursiv yondashuvlar integratsiyasi asosida konseptlarning badiiy matnda qanday faollashishi, o'zaro munosabatga kirishishi hamda yaxlit konseptosferani shakllantirishi yoritiladi. Qiyosiy tahlil natijasida turli badiiy diskurslarda konseptual tashkil topishning invariant va variativ jihatlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *badiiy diskurs, konsept, konseptosfera, kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili, qiyosiy yondashuv, aksiologiya.*

Annotation. *This thesis is devoted to a comparative linguistic investigation of the cognitive–discursive mechanisms underlying the formation of concepts and conceptual spheres in various literary discourses. In the study, a concept is interpreted as a linguo-cognitive unit, while a conceptual sphere is viewed as a semantic and axiological macrosystem formed within the framework of discourse. Drawing on the integration of cognitive and discursive approaches, the research elucidates how concepts are activated in literary texts, how they interact with one another, and how they collectively construct an integrated conceptual sphere. The comparative analysis identifies invariant and variable features of conceptual organization across different types of literary discourse.*

Key words: *literary discourse, concept, conceptual sphere, cognitive linguistics, discourse analysis, comparative approach, axiology.*

Zamonaviy qiyosiy tilshunoslikda badiiy diskursni lingvistik, kognitiv va



aksiologik omillar uyg'unligida tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunday yondashuv til birliklari orqali nafaqat ma'no, balki inson tafakkuri va madaniy qadriyatlar tizimi qanday shakllanishini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, konsept va konseptosfera tushunchalari badiiy diskursni tahlil qilishda markaziy nazariy kategoriyalar sifatida qaralmoqda.

Amaldagi tadqiqotlarda konseptlar ko'pincha alohida birlik sifatida tavsiflanadi yoki muayyan badiiy matn doirasida tahlil qilinadi. Biroq turli badiiy diskurslarni qiyosiy asosda olib, konseptlarning o'zaro bog'lanishi hamda ular asosida shakllanadigan konseptosferalarning kognitiv-diskursiv tashkil topish jarayoni yetarlicha umumlashtirilmagan. Natijada konseptual tuzilmalarning dinamik va tizimli xususiyatlarini izohlovchi integrativ yondashuvlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Mazkur tezis ana shu muammodan kelib chiqib, turli badiiy diskurslarda konseptlar va konseptosferalarning qanday kognitiv-diskursiv mexanizmlar asosida tashkil topishini aniqlashni maqsad qiladi. Tadqiqotda badiiy matnlar mustaqil estetik obyekt sifatida emas, balki konseptual tuzilmalarning lingvistik realizatsiyasi uchun diskursiv makon vazifasini bajaruvchi material sifatida qaraladi. Qiyosiy tahlil orqali konseptual tashkil topish jarayonining invariant va madaniy-diskursiv omillar bilan bog'liq variativ jihatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Konsept va konseptosferaning lingvokognitiv tabiati. Kognitiv tilshunoslik doirasida konsept tushunchasi til orqali modellashtiriladigan bilim, tajriba va baholashlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Konsept nafaqat nominativ birlik, balki inson ongida shakllangan tushunchaviy strukturaning lingvistik ifodasi hisoblanadi. Shu sababli konseptni faqat alohida so'z yoki ibora bilan chegaralash mumkin emas; u semantik maydon, metaforik modellar, baholovchi leksika va diskursiv strategiyalar orqali namoyon bo'ladi.

Konseptning madaniy va aksiologik tabiati masalasida Y.S. Stepanov qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Olim konseptni madaniyatning “konsentrlashgan nuqtasi” sifatida talqin qilib, uning tarkibida tushunchaviy, obrazli va qadriyatga oid qatlamlar mavjudligini [Степанов, 2004] ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv badiiy diskursda konseptlarning aynan baholovchi va obrazli komponentlar orqali faollashishini izohlash imkonini beradi. Chunki, badiiy matnda ma'no ko'pincha to'g'ridan to'g'ri nominatsiya orqali emas, balki bilvosita, obrazli va emotsional vositalar orqali yetkaziladi.

Konseptosfera tushunchasi esa konseptlarning yig'indisi emas, balki ularning o'zaro tizimli munosabatlarini ifodalovchi makrotuzilma sifatida qaraladi. V.I. Karasik konseptosferani muayyan diskursga xos bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va

baholashlar tizimi [Карасик, 2004] sifatida talqin qiladi. Demak, konseptosfera badiiy diskursda nafaqat individual muallif qarashlarini, balki jamiyatning umumiy aksiologik yo'nalishini ham aks ettiradi.

Kognitiv va diskursiv yondashuvlarning integrativ modeli. Kognitiv yondashuv til birliklarini ong'dagi bilim strukturalari bilan bog'liq holda talqin qilsa, diskursiv yondashuv ushbu birliklarning real kommunikativ jarayonda qanday funksional yuklama bajarishini aniqlashga xizmat qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu ikki yondashuvning integratsiyasi badiiy diskursni kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Y.S. Kubryakova tilni bilimni tashkil etish va strukturalash mexanizmi sifatida talqin qilib, til birliklari inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalarni shakllantirishda faol ishtirok etishini [Кубрякова, 2004] ta'kidlaydi. Bu qarash badiiy diskurs tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki badiiy matn til orqali nafaqat axborot uzatadi, balki o'quvchi ongida muayyan konseptual va aksiologik modelni shakllantiradi.

Diskurs jarayonida konseptlar statik holda qolmaydi, balki kontekst ta'sirida faollashadi, qayta talqin qilinadi va boshqa konseptlar bilan munosabatga kirishadi. Shu sababli konseptlarning kognitiv-diskursiv tashkil topishi jarayon sifatida qaraladi. Aynan ushbu jarayon konseptosferaning shakllanishiga olib keladi.

Konseptlarning diskursiv faollashuv mexanizmlari. Badiiy diskursda konseptlarning faollashuvi muayyan lingvistik va pragmatik shartlar bilan bog'liq bo'ladi. Avvalo, konsept muhim narrativ nuqtalarda – konflikt, qarama-qarshilik yoki baholash talab qilinadigan vaziyatlarda yuzaga chiqadi. Bunday holatda leksik tanlov, sintaktik konstruktsiyalar va stilistik vositalar konseptning kognitiv yukini kuchaytiradi.

Konseptlarning diskursiv faollashuvi odatda quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshadi:

- baholovchi leksika yordamida konseptga aksiologik rang berilishi;
- metaforik modellashtirish orqali abstrakt tushunchaning konkretlashtirilishi;
- narrativ kontekst orqali konseptning ma'no doirasining kengayishi.

Metaforik modellashtirish konseptlarning kognitiv tashkil topishida muhim rol o'ynaydi. J.Lakoff va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, inson abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglaydi. Badiiy diskursda bu jarayon ayniqsa faol bo'lib, konseptlar metafora orqali o'quvchi ongida jonlantiriladi [Lakoff & Johnson, 2008].

Konseptlararo munosabat va konseptosferaning ichki iyerarxiyasi. Badiiy diskursda konseptlar alohida, izolyatsiyalangan birliklar sifatida emas, balki o'zaro murakkab munosabatlar tizimi doirasida faoliyat yuritadi. Shu sababli



konseptosferaning tashkil topishini faqat individual konseptlarni tavsiflash orqali emas, balki ularning o'zaro iyerarxik va funksional aloqalarini tahlil qilish orqali ochib berish mumkin. Kognitiv-diskursiv yondashuvda konseptlararo munosabatlar diskursning semantik va aksiologik tuzilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Konseptosferaning ichki tuzilmasida yadroviy va periferik konseptlar ajralib turadi. Yadroviy konseptlar diskursning asosiy ma'no va baholovchi yo'nalishini belgilab, boshqa konseptlarning faollashuvini boshqaradi. Periferik konseptlar esa mazkur yadroni semantik jihatdan to'ldirib, diskursning ma'no doirasini kengaytiradi. Ushbu iyerarxiya tasodifiy emas, balki diskursning kommunikativ maqsadi va aksiologik yo'nalishi bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi.

Konseptosferaning aynan diskursga yo'naltirilgan tabiati haqida fikr yuritgan V.Karasik konseptosferani shaxs, til va madaniyat o'zaro ta'sirida yuzaga keladigan tizim [Карасик, 2004] sifatida talqin qiladi. Olimning yondashuviga ko'ra, diskurs jarayonida muayyan qadriyatlar va baholashlar ustuvorlik kasb etib, konseptlararo munosabatlarning iyerarxiyasini belgilaydi. Badiiy diskursda esa ushbu jarayon muallif pozitsiyasi va estetik strategiyalar bilan yanada murakkablashadi.

Badiiy diskursda konseptlararo munosabatlarning muhim xususiyati ularning dinamik tabiatga egaligidir. Diskurs rivoji davomida konseptlarning maqomi o'zgarishi mumkin: dastlab periferik bo'lgan konsept narrativ rivojlanish jarayonida markaziy mavqega ko'tarilishi yoki aksincha, yadroviy konsept ikkilamchi rolga o'tishi ehtimoldan xoli emas. Bu holat konseptosferani qat'iy tuzilma sifatida emas, balki o'zgaruvchan kognitiv makon sifatida qarash zaruratini yuzaga keltiradi.

Konseptlararo iyerarxiyaning shakllanishida aksiologik komponent muhim rol o'ynaydi. Aynan baholovchi birliklar konseptning diskursdagi mavqeyini belgilab, uni markaziy yoki periferik pozitsiyaga joylashtiradi. Bu jihat konseptni ko'p qatlamli madaniy birlik sifatida talqin qilgan Y.Stepanov qarashlari bilan uyg'unlashadi. Olim konsept tarkibida qadriyatga oid qatlam alohida o'rin tutishini ta'kidlab, uning diskursda ustuvor ahamiyat kasb etishini [Степанов, 2004] ko'rsatadi.

Shu tariqa konseptosferaning ichki iyerarxiyasi konseptlarning semantik mazmuni bilangina emas, balki ularning diskursiv funksiyasi va aksiologik yuklamasi orqali belgilanadi. Bu holat konseptosferani qiyosiy tahlil qilishda konseptlararo munosabatlarni markaziy tadqiqot obyekti sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Qiyosiy kognitiv-diskursiv tahlil: invariant va variativ mexanizmlar. Qiyosiy tilshunoslik doirasida badiiy diskurslarni tahlil qilishda asosiy e'tibor alohida matnlarni solishtirishga emas, balki turli madaniy muhitlarda bir xil konseptual mexanizmlarning qanday ishlashini aniqlashga qaratiladi. Kognitiv-diskursiv yondashuv aynan shu vazifani bajarish imkonini beradi, chunki u konseptlarning



diskursda qanday faollashishi va konseptosfera doirasida qanday tizimlashishini izohlashga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, turli badiiy diskurslarda konseptlarning tashkil topish jarayoni umumiy kognitiv sxema asosida amalga oshadi. Ushbu sxema konseptning diskursda paydo bo'lishi, baholovchi komponent bilan boyishi va konseptosfera tarkibiga integratsiyalashuvi bosqichlarini o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlar turli tillar va madaniy muhitlarda takrorlanib, konseptual jarayonning invariant xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab bergan Y.Kubryakova qarashlariga ko'ra, til birliklari bilimni nafaqat ifodalaydi, balki uni tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, konseptlarning diskursda faollashuvi inson tafakkuridagi bilim tuzilmalarining til orqali qayta tashkil etilishi [Кубрякова, 2004] sifatida talqin qilinadi. Bu holat turli badiiy diskurslarda konseptual mexanizmlarning o'xshashligini tushuntiradi.

Biroq qiyosiy tahlil konseptlarning faqat invariant jihatlarini emas, balki variativ xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Madaniy omillar, tarixiy tajriba va diskursning janr xususiyatlari konseptlarning lingvistik realizatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada bir xil konsept turli badiiy diskurslarda turlicha obrazlilik, baholash va stilistik vositalar orqali namoyon bo'ladi.

Konseptlarning variativ realizatsiyasida metaforik modellashtirish alohida o'rin tutadi. Abstrakt tushunchalarning konkret tajriba orqali anglanishini asoslab bergan J.Lakoff va M.Jonson konseptual metaforaning kognitiv tabiatini ochib beradi [Lakoff & Johnson, 2008]. Badiiy diskursda esa metafora konseptlarning madaniy xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, qiyosiy kognitiv-diskursiv tahlil konseptlar va konseptosferalarning ikki tomonlama – invariant va variativ – tabiatini aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv qiyosiy tilshunoslikda badiiy diskursni tahlil qilishning metodologik asoslarini mustahkamlab, konseptual jarayonlarning universal va madaniy jihatdan xos xususiyatlarini birgalikda ochib beradi.

Konseptlarning diskursiv realizatsiyasi: lingvistik va pragmatik mexanizmlar. Badiiy diskursda konseptlar ongdagi abstrakt kognitiv tuzilma sifatida mavjud bo'lib qolmay, balki muayyan lingvistik va pragmatik mexanizmlar orqali real nutqiy muhitda namoyon bo'ladi. Shu sababli konseptlarning diskursiv realizatsiyasini o'rganish ularning qanday til birliklari, qaysi nutqiy strategiyalar va qanday baholovchi vositalar orqali faollashishini aniqlashni talab etadi. Kognitiv-diskursiv yondashuv bu jarayonni ko'p darajali mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi.



Leksik darajada konseptlarning realizatsiyasi baholovchi va emotsional rangdor birliklar orqali yuzaga chiqadi. Badiiy diskursda leksik tanlov neytral bo‘lmay, muayyan konseptual yuklama bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Aynan baholovchi leksika konseptning aksiologik qatlamini faollashtirib, o‘quvchi ongida ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantiradi. Bu holat konseptni ko‘p qatlamli madaniy birlik sifatida talqin qilgan Y. Stepanov qarashlari bilan uyg‘unlashadi, chunki olim konsept tarkibida qadriyatga oid komponent alohida o‘rin tutishini [Степанов, 2004] ta’kidlaydi.

Sintaktik darajada konseptlar gap qurilishi va sintaktik urg‘u orqali kuchaytiriladi. Takror, parallel konstruksiyalar, inversiya va emfazali tuzilmalar konseptning diskursdagi markaziy ahamiyatini oshiradi. Bunday holatda sintaksis faqat grammatik vazifa bajarmay, balki konseptual ma’noni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Diskursiv tahlil aynan shu jihat orqali konseptning qaysi nutqiy vaziyatda ustuvor ahamiyat kasb etishini aniqlash imkonini beradi.

Pragmatik darajada konseptlarning realizatsiyasi nutq aktlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Baholash, ayblash, oqlash, tan olish kabi nutqiy harakatlar muayyan konseptlarni faollashtirib, ularni diskursning markaziga olib chiqadi. Bu jarayon badiiy diskursda konseptlarning faqat semantik emas, balki kommunikativ vazifani ham bajarishini ko‘rsatadi.

Metaforik modellashtirish va konseptual tajribaning diskursda shakllanishi. Konseptlarning badiiy diskursda faol ishlashida metaforik modellashtirish alohida ahamiyatga ega. Metafora abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglash imkonini beruvchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqqan J.Lakoff va M.Jonson qarashlarida markaziy o‘rin egallaydi. Ularning fikricha, inson tafakkuri ko‘p hollarda metaforik xarakterga ega bo‘lib, murakkab tushunchalar kundalik tajriba asosida modellashtiriladi [Lakoff & Johnson, 2008].

Badiiy diskursda metafora konseptlarning kognitiv tashkil topishida ikki tomonlama vazifa bajaradi. Bir tomondan, u abstrakt konseptni konkret obraz orqali tushunarli qiladi; ikkinchi tomondan esa, konseptga madaniy va aksiologik rang bag‘ishlaydi. Natijada konsept o‘quvchi ongida nafaqat mantiqiy tushuncha, balki emotsional va baholovchi tajriba sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari turli badiiy diskurslarda konseptlar va konseptosferalarning kognitiv-diskursiv tashkil topishi til orqali amalga oshadigan dinamik va tizimli jarayon ekanini ko‘rsatdi. Konseptlar diskursda lingvistik va pragmatik vositalar yordamida faollashib, o‘zaro munosabatda yaxlit konseptosferani shakllantiradi. Qiyosiy tahlil konseptual tashkil topishning invariant mexanizmlari bilan birga,



madaniy va janriy omillar ta’sirida yuzaga keladigan variativ jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Adabiyotlar:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 2008. – 256 p.
2. Карасик В.И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Москва: ГНОЗИС, 2004. – 389, [1] с.
3. Кубрякова Е.С. *Язык и знание: На пути получения знаний о языке*. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
4. Степанов Ю.С. *Константы: Словарь русской культуры*. – Изд. 3-е, испр. и доп. – Москва: Академический проект, 2004. – 992 с.